



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Bandlik (Karyera) markazi
NIZOMI

DENOV- 2026

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Bandlik (Karyera) markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022 yil 4-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 19-sonli bayoni, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2005 yil 6 avgust 1506-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-61-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining buyurtmachilar bilan hamkorligini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 13-fevraldagi 7-q/q-son hamda O'zmilliybank AJ ning 2026-yil 13-fevraldagi 2-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "Kelajakka qadam" dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibi, hamda 2026-yil 5-martdagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlashga qaratilgan **"Workshop"** hamda **mehnat yarmarkalari** (karyera kunlari)ni tashkil etish to'g'risida"gi 84-son buyrug'i asosida ish yuritadi.

1.2. Markaz talabalarning ish topishlari va ishga joylashishlariga ko'maklashadi va u Institutning tarkibiy bo'linmasidir. Ushbu tarkibiy bo'linma ish beruvchi tashkilotlar, muassasalar, korxona va idoralar, hokimliklar huzuridagi bandlik markazlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatadi.

1.3. Markaz talabalarni bo'sh vaqtlarida milliy iqtisodiyotning amaliy ehtiyojlariga muvofiq mehnat bozoridagi mutaxassislariga talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib ishga joylashtirishga yordam beradi.

1.4. Karyera markazining faoliyati Institut rektori tomonidan nazorat qilinadi.

2-BOB. MARKAZNI MAQSADI, VAZIFALARI VA FAOLIYAT TURLARI

2.1. Markazning maqsadi Institutning quyi kurs va bitiruvchi kurs talabalari hamda ish beruvchilar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatishiga va ularning karyerasini rejalashtirishga hissa qo'shish, ish bilan ta'minlashni tashkil etishni amalga oshirish.

2.2. Institut talabalari va bitiruvchilari bilan vakolatli boshqa ta'lim tashkilotlari birlashmalari, karyerani rivojlantirish faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilot va sheriklik o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va ish beruvchilar bilan munosabatlarni mustahkamlash.

2.3. Talabalarni vaqtincha ish bilan ta'minlash va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashda yordam berish.

2.4. Bitiruvchilarni bilan ish bilan ta'minlash bo'yicha munosabatlarni rivojlantirish, karyeralarini rivojlantirish va ularni Institut bilan hamkorlikga jalb qilish.

2.5. Amaliyot yoki stajirovka o'tash masalalari bo'yicha potentsial ish beruvchilar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish.

2.6. Institut talabalari va bitiruvchilarini yetakchi sanoat, shu jumladan yuqori texnologiyalarga ega bo'lgan xalqaro kompaniyalarda amaliyot yoki stajirovka o'tashini tashkil etish jarayonida ishtirokini rejalashtirish.

2.7. Institut talabalar va bitiruvchilarining markaz tomonidan tashkil etilgan elektron platformasi yordamida akademik harakatchanligini rivojlantirish.

2.8. Yuqoridagi maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa vazifalarni hal qilish.

3-BOB. MARKAZ TOMONIDAN TASHKIL QILINADIGAN TADBIRLAR

3.1. Fakultetlarda Markazning Karyera ofislarini rivojlantirishga ko'maklashish, karyera tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazishda yordam berish.

3.2. Markaz tarkibida Kovorking ofislarini ochish va ushbu ofislarga talabalarni jalb qilgan holda ularning bandligiga ko'maklashish.

3.3. Bitiruvchilarning ish beruvchilar bilan uchrashuvlari, mahorat darslari, treninglar, karyeralarini rivojlantirishga yordam beradigan o'quv seminarlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

3.4. Institut talabalari va bitiruvchilarini kasbga yo'naltirishga ko'maklashadigan tadbirlarni (karyera kunlari, mehnat yarmarkalari va boshqa tadbirlar) tashkil etish.

3.5. Institut talabalari va bitiruvchilarni malakaviy sifatlarni aniqlash uchun so'rovnomalarni tashkil etish va o'tkazish.

3.6. Talabalarni kelajakdagi ishini tanlash, ustuvor ish beruvchilar talablari, shuningdek dolzarb muammolar bilan tanishtirish.

3.7. Markaz tadbirlarini tashkil etish bo'yicha ish beruvchilar, sherik kompaniyalar, yirik kompaniyalar so'rovnomalarni tashkil etish va o'tkazish.

3.8. Bitiruvchi talabalarga ish beruvchilarning bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish.

3.9. Bitiruvchilar va talabalar soni bo'yicha ish beruvchilarning bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni tanlash va taqsimlash.

3.10. Korxonalarda amaliyotni tashkil etilishi va o'tkazilishi sifatini baholash.

3.11. Markaz tadbirlarini tashkil etish sifatini baholash.

3.12. O'z karyerasida muvaffaqiyat qozongan bitiruvchilar bazasini shakllantirib borish (ishlayotgan yirik xorijiy va xalqaro kompaniyalarda).

3.13. Markaz maqsadlariga erishish va muammolarini hal qilish bo'yicha boshqa tadbirlar.

4-BOB. MARKAZ A'ZOLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Markazning a'zolari markazning maqsadlarini qabul qiladi va ushbu Nizom talablarining bajarilishiga mas'uldirlar.

4.2. Markaz a'zolari quyidagilarga huquqlarga ega:

- Markaz faoliyatining istalgan yo'nalishi bo'yicha ishlarda ishtirok etish va uning mulkidan foydalanish.
- Markazning barcha tadbirlarini tashkil etish, tadbir mavzuni taklif qilish hamda ularda ishtirok etish.
- Markazning yordami, ko'magi va himoyasidan foydalanish.
- Markaz faoliyatining barcha masalalari bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish.

4.3. Markaz a'zolarining majburiyatlari:

- Markaz a'zolari Nizom talablarini, yuqori turuvchi tashkilotlar farmon va buyruqlarini, shuningdek ichki qoidalarini bajarishi shart.
- Markaz faoliyati, uning a'zolari va hamkor tashkilotlarning konfidentsial ma'lumotlarini oshkor qilmaslik yoki tarqatmaslik.

4.4. Markaz a'zolarini a'zolikdan chetlatish:

- Markazga a'zo tomonidan ariza berilganda.
- Markaz Nizom talablarini, farmon va buyruqlarini, shuningdek ichki qoidalarini buzganda.
- Markaz a'zosi tomonidan moddiy hamda ma'naviy zarar yetkazilganda.
- Markazni maqsad vazifalariga zid bo'lgan harakatlar sodir etilganda.
- Markaz rahbari tomonidan berilgan vazifa hamda qarorlarini bajarmaganda va qonunchilikda belgilangan normalarga zid harakatlarni sodir etganda.

5-BOB. MARKAZNI TARKIBIY TIZIMI

5.1. Markaz Instituti rektori tomonidan tasdiqlanagan o'quv yili uchun tuziladigan ish rejasi asosida faoliyat ko'rsatadi.

5.2. Talabalar amaliyoti bo'limi bosh mutaassisi (A.Allanazarov) Karyera markaz rahbari hisoblanadi. Fakultet dekanlari va barcha kafedra mudirlari hamda registrator ofisi menedjeri (A.Qosimov) a'zo hisoblanadi.

5.3. Markazning tuzilishi va a'zolari markazning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda Institutning rivojlanish siyosati bilan belgilanadi.

5.4. Karyera markazi rahbari Institut tuzilmasini, uning faoliyat yo'nalishlari, prorektorlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, Institutning tarkibiy bo'linmalari

faoliyatining yo'nalishi funktsiyalari, asosiy hamkor tashkilotlar va ularning rahbarlarini bilishi kerak.

5.5. Markazni tezkor boshqaruvini amalga oshirish, ta'minlash, markaz faoliyatiga oid rektor buyruqlarini bajarish va ularni topshirish, Markazning uzoq muddatli va yillik ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va ularni Institut ma'muriyatiga topshirish va tasiqlatish. Aloqalar, ijtimoiy sheriklik masalalarini kengaytirishga ko'maklashish, kasbiy amaliyotni tashkil etish, o'qitish va ishga joylashtirish bilan bo'limlar, institutlar, markaz xodimlari tomonidan bitiruvchi mutaxassislar ish beruvchilar va bandlik xizmatlari, Mehnat yarmarkalari tashkil etish va ishtirok etish, tahlil o'tkazish, taqsimlangan joylarga borgan bitiruvchilar soni nazorati va boshqalar.

5.6. Karyera markazi xodimlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, lavozim tavsifi, mehnat shartnomasiga muvofiq o'z vazifalarini bajaradilar.

5.7. Markaz a'zolari soni, ularga to'lanadigan haq miqdori, ustamalar va boshqa mukofotlar Institut rektori tomonidan Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 517-sonli Qaroriga muvofiq tasdiqlanadi.

6-BOB. MARKAZ FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

6.1. Markaz o'quv yili yakuni bo'yicha Institut Kengashiga statistik hisobot beradi.

6.2. Markaz jismoniy va yuridik shaxslarga turli shakldagi ma'lumotlarni berishga majbur emas.

7-BOB. MARKAZ NIZOMIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

7.1. Markaz Nizomiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish Institut rektori tomonidan amalga oshiriladi.

8-BOB. MARKAZNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TARQATISH

8.1. Markazni qayta tashkil etish va tarqatish Institut Kengashi yoki rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.